

## OTA-ONALAR BILAN UCHRASHUV

Rishton tumanida yangi o'quv yili oldidan ota-onalar bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Shunday yig'ilishlardan biri Yangi yo'l mahalla fuqarolar yig'inidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ota-onalari ishtirokida o'tkazildi.

Tadbir MFY xodimlari, maktab direktori va boshqa mutasaddilar bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Unda so'zga chiqqan maktab direktori Umidjon Samijonov yangi o'quv yiligi tayyorgarlik, xususan, o'quvchilarini kiyinishiga ahamiyat qaratildi.

Uchrashuvda ota-onalar bilan o'quvchilar uchun yagona kiyim tanlab olinib, uning ahamiyati aniq misollar bilan tushuntirib o'tildi.

Samimiylu ruhda o'tgan uchrashuvda MFY raisi va xotin-qizlar faoli ham so'zga chiqishib, bugungi kundagi dolzarb masalalarni ta'kidlab o'tishdi.

2024-08-20 17:22:15